**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, Usmonov Murodjon Dusmurot o'g'li**

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ........ 583
**Mirzayev Qulmamat DJonuzoqovich, Mirzayev Azzamjon Jonuzokovich, Eshquvvatova Nodira Abdullayevna**

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA IQTISODIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI ........ 588
**Mirzayev Qulmamat Djonuzoqovich, Eshquvvatova Nodira Abdullayevna**

СТРАТЕГИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНА: РОЛЬ ИННОВАЦИЙ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО КАПИТАЛА В ЭПОХУ НООНОМИКИ ........ 593
**Чекулаева Кристина**

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОБЕСПЕЧЕНИЮ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ ........ 599
**Чекулаева Кристина**

YASHIL IQTISODIYOT – MAMLAKAT TARAQQIYOTINING ASOSIY OMILI ........ 605
**Oybek Hamdamov, Qosimov Jahongir**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALI SIFATINI OSHIRISHDA TA'LIMNING AHAMIYATI ........ 608
**M.Ostanova, Ro'ziyev Ramshid**

MODERN LEGAL BASIS FOR THE EFFICIENT USE OF FINANCIAL RESOURCES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN OUR COUNTRY ........ 613
**Ismoilova Gulrux, Khayriddinov Shukhrat Botirovich**

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA TABIIY - IQTISODIY MANBAALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY MEXANIZMI ........ 617
**Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li, Mavlonova Surayyo Xasan qizi**

YANGI O'ZBEKISTONDA SOHALARNI RAQAMLASHTIRISH SAMARADORLIGI ........ 621
**Gulrux Arslon qizi Ismoilova**

# "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH ORQALI TABIIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA IQTISODIY FAOLIYATNING ATROF-MUHITGA SALBIY TA'SIRINI KAMAYTIRISH

**Xo'janova Gulshoda Otamurodovna**
QarDTU "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Maqolada XXI asrda global iqlim o'zgarishlari, biosfera degradatsiyasi, resurslarning cheklangani, dunyo aholi sonining ortib borayotgani natijasida tabiiy resurslar salohiyatidan oqilona foydalanish, global ekologik muammolar sharoitida atmosferaning ifloslanishi va uning oldini olish masalalari, yashil iqtisodiyotning ahamiyati, atrof-muhit muhofazasi, muqobil hamda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishda yashil ishlab chiqarishning dolzarbligi va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish orqali resurslardan samarali foydalanish hamda iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, tabiiy resurs, energiya, global muammo, resurslarni tejash, chiqindilarni qayta ishlash, eko-sanoat parki, resurslarning cheklangani, qayta tiklanadigan energiya.

Abstract: The article discusses the rational use of natural resource potential in the 21st century due to global climate change, biosphere degradation, resource limitations, and the growing world population; atmospheric pollution in the context of global environmental problems and its prevention; the importance of the green economy; environmental protection; the relevance of green production in the effective use of alternative and renewable energy sources; and how to effectively utilize resources and reduce the negative impact of economic activity on the environment through the transition to a "green economy."

Key words: green economy, natural resources, energy, global problem, resource conservation, waste recycling, eco-industrial park, resource scarcity, renewable energy.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы рационального использования природно-ресурсного потенциала в XXI веке в связи с глобальными изменениями климата, деградацией биосферы, ограниченностью ресурсов и ростом населения планеты; загрязнение атмосферы в контексте глобальных экологических проблем и его предотвращение; значение «зелёной экономики»; охрана окружающей среды; актуальность зелёного производства в эффективном использовании альтернативных и возобновляемых источников энергии; а также пути рационального использования ресурсов и снижения негативного воздействия хозяйственной деятельности на окружающую среду посредством перехода к «зелёной экономике».

Ключевые слова: зелёная экономика, природные ресурсы, энергия, глобальная проблема, сохранение ресурсов, переработка отходов, экоиндустриальный парк, дефицит ресурсов, возобновляемая энергия.

## KIRISH

Bugungi zamonaviy dunyoda mamlakatlarda iqtisodiy o'sish bilan birgalikda ekologik muammolar ham keskinlashib bormoqda. Iqlim o'zgarishi, atmosfera havosining, suv xavzalarining ifloslanishi, ichishga yaroqli suv manbalarining yetishmasligi va tabiiy resurslardan haddan ziyod noto'g'ri foydalanish global moammo sifatida tan olinmoqda. Ushbu xavflarni bartaraf qilishda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini asosiy yechim sifatida qaralmoqda. Yashil iqtisodiyot – bu barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydigan, atrof-muhitni muhofaza qiluvchi va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni nazarda tutuvchi iqtisodiy modeldir. Shu sababli respublikamizda ham "yashil iqtisodiyot"ga o'tish orqali tabiiy resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga salbiy ta'sirini yumshatish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda yashil iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktabrda tasdiqlangan "2019-2030 yillarda O'zbekiston respublikasini yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" muhim dasturil amal hisoblanadi: "Mavjud muammolarni hal etish uchun iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kam uglerod sarflagan holda rivojlanish va resurslarni tejash, samarali va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, barqaror qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali tabiiy va energiya resurslaridan foydalanish usullarini tubdan o'zgartirish talab etiladi".

## MAZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy adabiyotlarda atrof-muhitni muhozafa qilish, yashil iqtisodiyot masalalari uncha uzoq bo'lmagan davrdan boshlab tadqiq qilib kelinmoqda. "Yashil iqtisodiyot" kontseptsiyasiga alohida, yagona ishlab chiqilgan yondashuv mavjud emas.

A.V.Vahabov va Sh.X.Xajibakiyev, yashil iqtisodiyotga o'tishning zaruriyatini hisobga olib, quyidagi ustuvor yo'nalishlarni qayd etadi: "O'zbekistonda uzoq muddatli istiqbolda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak: Barqaror rivojlanish milliy maqsad va vazifalariga muvofiqlik; resurslardan oqilona foydalanish, barqaror iste'mol va ishlab chiqarish; ekologik va ijtimoiy mezonlarni xo'jalik hisobi tizimiga kiritish; ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishish uchun "yashil" vositalar va yondashuvlardan foydalanishning ustuvorligi; mavjudga erishish oshirish orqali makroiqtisodiy maqsadlarga erishish asosiy tarmoqlarda raqobatbardoshlik va ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari, "yashil" ish o'rinlarini yaratish, aholi farovonligini oshirish; xavfsizlik iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish chora-tadbirlarining investitsion jozibadorligi".

White, K., Hardisty, D.J., Habib, o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida global miqyosdagi paradigmadagi sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatadiki, "Iste'molchilar atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari va yashil mahsulotlar va xizmatlar uchun ko'proq qurbon qilishga tayyor bo'lgan avlodlar nomutanosibligini hisobga olishadi", deb ta'kidlashgan.

BMTning atrof-muhit bo'yicha dasturi hujjatlariga muvofiq, "yashil iqtisodiyot - bu "tashqi resurslardan foydalanish ichki resurslar bilan almashtiriladigan va toza va samarali texnologiyalar va barqaror qishloq xo'jaligi iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari yaratish va ishlab chiqarish ko'lamini qisqartirishning asosiy omili bo'lgan iqtisodiyotdir".

M.M.Davletova o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida Markaziy Osiyo mintaqasi sharoitida yashil iqtisodiyot konsepsiyasining nazariy konseptual asoslarini, shakllanishi va rivojlanishining asosiy tamoyillari, xorijiy tajribani Markaziy Osiyo davlatlarida qo'llash masalalari bo'yicha tadqiqot olib borgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda asosan statistik guruhlash, va taqqoslash ilmiy abstraksiyalash kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Yashil o'sish iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilish iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda sohani takomillashtirish borasida xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy afzalligi – bu iqtisodiy rivojlanish bilan birga ekologik muvozanatni saqlash imkoniyatidir. Bu model orqali davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishi, energiya samaradorligini oshirishi va resurslardan foydalanishda uzoq muddatli yondashuvni shakllantirishi mumkin.

Shu bilan birga, bu jarayon muayyan muammolar bilan ham bog'liq. Masalan, dastlabki investitsiyalar yuqori bo'lishi, mavjud ishlab chiqarish tizimlarini moslashtirish zarurati, aholining xabardorlik darajasi pastligi kabi omillar yashil iqtisodiyotga o'tishda to'siq bo'lishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, uzoq muddatli istiqbolda yashil iqtisodiyot global ekologik muammolarga qarshi kurashda eng samarali strategiyalardan biri bo'lib qoladi.

Barqaror ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlari mahsulotlarning butun hayotiyligi davomida tabiiy resurslarni iste'mol qilish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlab chiqarish jarayonlari va iste'molini yanada takomillashtirishga qaratilgan. Iqtisodiy samaradorlik resurslardan oqilona foydalanish usullarini, mahsulot yoki xizmat birligi uchun talab etiladigan resurslar miqdorini va hosil bo'ladigan chiqindilar hamda ularni kamaytirishga qaratiladi.




1-rasm. Jahonda issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish ko‘rsatkichlari[1]

Global iqlim o‘zgarishlari XXI asrda mamlakatlar o‘rtasida ko‘zga tashlanayotgan iqtisodiy tengsizlikni yaqqol yuzaga chiqarmoqda. Global issiqxona gazlarining 26%i AQShga, 22%i Yevropaga to‘g‘ri kelgani holda, ushbu gazlarning bor-yo‘g‘i 3,8%i Afrika qit’asi hissasiga to‘g‘ri keladi. Issiqxona gazlarining 80%i rivojlangan mamlakatlarga tegishli bo‘lib, ushbu mamlakatlar 2030 yilga qadar ushbu ko‘rsatkichni 20-40%gacha qisqartirish majburiyatini olishgan[2]

Qazib olinadigan resurslarni iste’mol qilishni tartibga solish bilan birgalikda, inson ekologik tizimni zararlantiradigan darajada toksik moddalarni atrof-muhitga chiqarilishining oldini olishi zarur. Iqtisodiy faoliyatning oqibatlarini tartibga solishga qartilgan barcha qarorlar xalqaro miqyosda qabul qilinishi va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun rivojlanish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Rivojlanayotgan mamlakatlarga atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha texnik yordam bilan birgalikda moliyaviy jihatdan ham yordam ko‘rsatish zarur. Bunday chora-tadbirlarning natijalari nafaqat milliy va xalqaro darajalarda muhim ahamiyatga ega[3]

2015 yilda BMT Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasining Parij bitimi qabul qilindi. Ushbu Bitimning maqsadi 2020 yildan boshlab atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlarini miqdorini qisqartirish bo‘yicha chora-tabirlarni tartibga solish, konvensiya ijrosi amaliyotini takomillashtirish hisoblanadi.

Ekologik muammolarni hal etish masalasi BMT “Barqaror rivojlanish maqsadlari 2030” rejalarida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, 2030 yilga qadar atmosferaga issiqxona gazlarini chiqarish hajmini 2010 yil darajasiga nisbatan 45%ga, 2050 yilga qadar esa 0%ga qadar qisqartirish mo‘ljallangan.

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda har kuni aholi jon boshiga 1 kg.dan 3 kg.gacha qattiq maishiy chiqindilar ishlab chiqarilmoqda. AQShda ushbu ko‘rsatkich har 10 yilda 10 % ga ortib bormoqda. Rossiyada esa chiqindilar to‘planadigan maydonlar 2 ming kv. km.dan ortiq maydonni tashkil etadi8. Shu bilan bir vaqtda chiqindilarni oqilona boshqarish tizimini yaratish jiddiy iqtisodiy dividend keltirishi mumkin. Jumladan, Buyuk Britaniyada 2005-2010-yillarda maxsus dasturlar doirasida 7 mln. tonna chiqindi qayta ishlangan va ulardan ikkilamchi marta foydalanilgan. Bu esa 6 mln. tonna issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish, 10 mln. tonna birlamchi materiallar va 10 mln. litr suvni tejash imkonini berdi. Ushbu sohada 8 700 nafar ishchi o‘rinlari yaratilgan.[4]

Mamlakatimizda ham chiqindilarni qayta ishlaydigan sanoat tarmog‘ini rivojlantirish, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini oshirish, korxona va tashkilotlardan chiqadigan qoldiqlardan ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanish kerak. Chiqindilarni qayta ishlash va to‘liq saralash, shu jumladan, chiqindilardan ikkilamchi va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, ularga termik ishlov berish hisobiga muqobil energiya olish texnologiyalarini joriy etishga erishish maqsadida hududlarda Eko-sanoat parkini tashkil etish asosida tabiiy

1 The Emissions Gap Report 2018. http://www.unenvironment.org/emissionsgap.
2 Finance & Development, december 2019, Vol. 56, No. 4.
3 https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declarathenv.shtml
4 http://web.unep.org/newscentre/smarter-use-resources can-add-2-trillion-annually-global-economy

resurslardan foydalanish samaradorligi oshirish, iqtisodiyotni barqaror rivojlanish orqali yashil iqtisodiyotga o'tishni rag'batlantirish mumkin.




2-rasm. An'anvaiy (chiziqli) va aylanma (sirkulyar) iqtisodiyotda tabiiy resurslardan foydalanish jarayoni[5].

Yashil, chiqindisiz ishlab chiqarish asoslangan iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlash uchun makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, farovonligimizni ta'minlaydigan ekologik xizmatlarni va resurslarni taqdim etishnning oqilona makroiqtisodiy siyosatini ishlab chiqish lozim.

Yashil iqtisodiy o'sish tabiiy boyliklar bardavomligini ta'minlash bilan bir qatorda iqtisodiy yuksalish va rivojlanishni rag'batlantirishni anglatadi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishda birinchi navbatda milliy qonunchilikka e'tibor qaratish, uni jahon andozalariga moslashtirish hamda yagona tizimga keltirish zarur. Ikkinchi muhim jihati esa "yashil iqtisodiyot"ga o'tishda davlat qanday moliyaviy dastaklardan foydalanmoqchi ekanlini aniqlab olishdan iborat. Chunki yashil iqtisodiyotga o'tishning dastlabki bosqichda iqtisodiyot tarmoqlariga katta miqdordagi investitsiya kiritishga to'g'ri kelishi mumkin. Bunday holatni davlat budjeti ko'tara olmaydi, shu boisdan, xalqaro donor tashkilotlarga murojaat qilgan ma'qul.

Respublikamizda poligonlarda chiqindilar to'planishining oldini olish, atrof-muhitga yetkazilayotgan salbiy ta'sirini minimallashtirish, chiqindilarni boshqarish, ularni qayta ishlash sohasini kompleks tizimlashtirish, muqobil energiya olish texnologiyalarini joriy etish va sohaning investitsion jozibadorligini yanada oshirish hamda investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadida hududlarda Eko-sanoat parklari faoliyatini yo'lga qo'yish belgilab qo'yildi[6].

Hozirgi kunda BMT tarkibidagi sanoatni rivojlantirish tashkiloti (YUNIDO)ning Germaniya hukumati tomonidan Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati orqali moliyalashtirilayotgan "O'zbekiston eko-sanoat parklari" loyihasi 2 ta tajriba zonasi - "Mexanik" kichik sanoat zonasi va "Urgut" erkin iqtisodiy zonasini o'z ichiga oladi[7]

Bugungu kunda korxona va tashkilotlar, aholining turli qatlamlariga muqobil energiya manbalaridan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonida uglerod sarfini kamaytirish, "yashil texnologiyalar"ni qo'llash va tegishli asbob-uskunalar xarid qilish uchun imtiyozli yoki foizsiz kreditlar, subsidiya hamda grantlar, soliq imtiyozlari taqdim etilmoqda. O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishi sanoat tarmoqlarida innovatsion-investitsion strategiyalarga asoslangan, texnologiyalarni yangilash orqali mahsulotlarni yuqori sifatli va samarali tarzda ishlab chiqarishga ko'mak beradigan investitsiyalar yordamida sanoatni rivojlantirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi:

5 Heshan Jayawardane. Eco-industrial Parks. https://www.linkedin.com/pulse/eco-industrial-parks-heshan-jayawardane
6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-martdagi PF-56-son–Farmoni
7 https://uza.uz/uz/posts/eko-sanoat-parklari-tashkil-qilish-boyicha-yangi-qadamlar_642919. Eko-sanoat parklari tashkil qilish bo'yicha yangi qadamlar.

1. O‘zbekiston sanoatida ilmiy-tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI) va intelektual faoliyatni rivojlantirish, xodimlarni innovatsion faolligini rag‘batlantirish, ishlab chiqarish va tahlillarni o‘tkazish;

2.Sanoat korxonalari faoliyatida chiqindisiz texnologiyalar asosida tovar mahsulotlarni ishlab chiqarish, zamonaviy va sifatli texnologiyalarni joriy etish orqali mahsulotlarni yangilab, shu asosda tabiiy resurslarni tejash, mavjud imkoniyatlardan va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish;

3. Kadrlarni mahoratini oshirishga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlardan foydalanish va mahsulotlarni ishlab chiqarishda zarur ko‘nikmalarni xorijiy grand dasturlari orqali olish.

4. Eng so‘nggi innovatsiyalarga venchurli investitsiya qilish orqali moliyalashtirishni asosli amalga oshirish.

5. Yangi texnologiyalarni qo‘llab quvvatlash orqal energiya tejamkorligiga erishish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish mumkin;

6. Yer resurslaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston hududining 80%i cho‘l va yarimcho‘llardan iborat. Qariyb 10 mln gektar yaylovlar tubdan yaxshilanishga muhtoj;

6. Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, oqava suvlarni kimyoviy va biologik qayta ishlov berish orqali qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari uchun foydalaniladigan sug‘orish texnologiyasini joriy etish;

7. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida resurslarni tejash.

Yuqoridagi yondashuvlarning amalga oshirilishi sanoatni barqaror rivojlanish orqali yashil iqtisodiyotga o‘tishni rag‘batlantiradi.

Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi uchun sanoat tarmog‘idagi korxonalarning tutgan o‘rnini tahlil qilish orqali bir necha muhim chora tadbirlarni amalga oshirishni taklif qilaman:

1. “Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasini mavafaqqiyatli amalga oshirishda energiya va resurslarni tejaydigan samarali texnologiyalar, muqobil energetikani rivojlantirishga qo‘shimcha investitsiyalar yo‘naltirish;

2. Ilmiy-tadqiqot ishlarini, xtirolarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va tajriba va ko‘rgazmali zavodlarni birgalikda moliyalashtirish o‘zgarishlarni yaratishga yordam berish;

3. tabiiy resurslardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha kompleks baholash tizimi ishlab chiqish;

4. Hududlarda Eko-sanoat parkini tashkil etish asosida tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi oshirish, chiqindisiz ishlab chiqarishni tashkil qilish;

5. Yashil iqtisodiyotni yuqori darajada qo‘llab-quvvatlaydigan infratuzilmani ta’minlash, manfaatdor tomonlar o‘rtasida moslashishni osonlashtirish, maqsadlar va turli tashkiliy yechimlarni ishlab chiqishni rag‘batlantirish.

Yashil iqtisodiyot – bu bugungi kun uchun nafaqat ishlab chiqarish, qolaversa aholi turmush tarzi uchun ham eng muhim iqtisodiyot, faqat ekologik siyosat emas, balki kelajak uchun iqtisodiy zaruratdir. U nafaqat tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni, balki jamiyat farovonligini oshirishni ham ta’minlaydi. Shu bois, davlatlar, xususan O‘zbekiston uchun ham yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o‘tish strategik muhim vazifa hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish orqali tabiiy resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish asosan energiya tejamkorligiga erishish, suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, tabiiy resurslarni tejash, chiqindilarni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish bilan atrof muhitga zarar yetkazmasdan, ekologiyani asrab, tabiiy resurslarni tejab, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish muhim sanaladi. Shu bilan birga sanoat korxonalarida issiqxona gazlari emissiyalarning oshib borayotganligi davlat va xalqaro sektorda yashil investitsiyalarni talab qiladi. Jumladan, ekologik qoidalarni amalga oshirishdagi ziddiyatlarni, havoning ifloslanish darajasini o‘lchay oladigan maxsus monitoring texnologiyalarini talab qiladi. Fikrimizcha, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini rag‘batlantirish va amalga oshirish uchun davlat budjeti mablag‘laridan moliyalashtirilishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son “O‘zbekiston Respublikasining 2019-2030 yillarga mo‘ljallangan “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-martdagi PF-56-son Farmoni
3. Вахабов А. В., Хажибакиев Ш. Х. Необходимость и приоритетные направления перехода к «зеленой экономике» в Узбекистане // Экономика и финансы (Узбекистан). 2021. № Спецвыпуск 4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/neobhodimost-i-prioritetnye-napravleniya perehoda-k-zelenoy-ekonomike-v-uzbekistane
4. White, K., Hardisty, D.J., Habib, R., 2019. The elusive green consumer. Harv. Bus. Rev 11 (1), 124-133.
5. Heshan Jayawardane. Eco-industrial Parks. https://www.linkedin.com/pulse/eco-industrial-parks-heshan-jayawardane
6. М.М.Давлетова. Формирование и развитие “зеленой” экономики в условиях стран Центрально-Азиатского региона. https://tnu.tj/avtorefi/avtorefDavlyatovaMM. pdf.
7. United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC). 2016 biennial assess-ment and overview of

climate finance flows report. Bonn: United Nations; 2016.
8. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declarathenv.shtml
9. 2023: Broken Record – Temperatures hit new highs, yet world fails to cut emissions (again). Nairobi. https://doi.org/10.59117/20.500.11822/43922.
10. The Emissions Gap Report 2018. http://www.unenvironment.org/emissionsgap.
11. Finance & Development, december 2019, Vol. 56, No. 4.
12. United Nations Environment Programme (2023). Emissions Gap Report http://web.unep.org/newscentre/smarter-use-resources can-add-2-trillion-annually-global-economy
13. https://uza.uz/uz/posts/eko-sanoat-parklari-tashkil-qilish-boyicha-yangi-qadamlar_642919. Eko-sanoat parklari tashkil qilish bo'yicha yangi qadamlar.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

## 2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.


Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.


““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz